XALQARO MOLIYA INSTITUTLARINING JAHON XO‘JALAGIDAGI O’RNI

Baxtiyorova Intizor Ixtiyor qizi
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Qabul qilindi: 05.11.2025
Ko‘rib chiqildi: 06.11.2025
Tasdiqlandi: 07.11.2025

Kalit so‘zlar:
xalqaro moliya institutlari, jahon xo‘jaligi, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, moliyaviy barqarorlik.

Annotatsiya. Ushbu tezisda xalqaro moliya institutlarining jahon xo‘jaligidagi o‘rni, ularning global iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli hamda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilingan. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ), Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi tashkilotlarning faoliyati, ularning asosiy maqsadlari, moliyaviy yordam mexanizmlari hamda xalqaro iqtisodiy tizimdagi o‘zaro hamkorlik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro moliya institutlarining O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni va ularning milliy iqtisodiy siyosatga ta’siri bo‘yicha tahliliy fikrlar bayon etilgan.

XX asrning 50-60 yillaridan so‘ng jahon xo‘jaligining faoliyati kengaydi, xalqaro iqtisodiy aloqalar rivojlanib xalqaro mehnat taqsimoti chuqurlashib bordi. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida bir-biriga bog‘li bo‘lmagan yoki bir-biri bilan xaqlaro iqtisodiy aloqalarni o‘rnatmagan bironta ham mamlakat yo‘q. Bugungi kunda jahon xo‘jaligi rivojlanishi insonlarning o‘zaro iqtisodiy faoliyati doirasida ro‘y bermoqda. Iqtisodiyotga oid bir qator adbiyotlar, shuningdek kundalik hayotimizda “Jahon xo‘jaligi”, “Jahon iqtisodiyoti” tushunchalari ko‘p ishlatiladi. Haqiqatan ham jahon xo‘jaligi o‘zining murakkabligi, ziddiyatlarga boyligi va iqtisodiy munosabatlari bilan butun bir birikmani hosil qiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “Jahon xo‘jaligi”, “Jahon iqtisodiyoti” iboralari aniq bir tushuncha berilmagan. Ammo bu iboralar iqtisodiy hayotimizga muhim o‘rin tutganligi uchun ham olimlar ushbu iboralarga o‘zlarining bir qator kontseptsiyasini bergan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- jahon xo‘jaligi – o‘zaro mehnat taqsimotiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni o‘rnatgan milliy xo‘jaliklar yig‘indisi;

- jahon xo‘jaligi – xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga ega bo‘lib, savdo-sotiq, moliyaviy munosabatlarni o‘z ichiga olgan kapital resurslar va ishchi kuchidan turlicha foydalanuvchi jamiyat;

- jahon xo‘jaligi – global iqtisodiy tizim. Bu tizim ishlab chiqarishni o‘zida tashkil etib, ishlab chiqarish munosabatlarining huquqiy va siyosiy chegaralarini o‘rnatuvchi xo‘jalikdir.

Jahon xo‘jaligi butun bir tizim ekanligini jahon olimlari tan oladi. Jahon iqtisodiyotida ushbu so‘zning vujudga kelishi vaishlatilish jarayonlari bir butunlikni tashkil etadi. Ushbu butunlik orqali jahonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar jahonning tashqi va ichki bozorlariga chiqariladi va tovar-pul munosabatlari shaklida faoliyat yuritadi.

Jahon iqtisodiyoti juda murakkab tizimdir. YA’ni, iyerarxiyasi ko‘p pog‘onali bo‘lib, tuzilishi nihoyatda notekisdir. Iyerarxiya – yuqori pog‘onaga ega bo‘lgan bo‘lib, jahon xo‘jaligining barcha talablariga javob beradi. Masalan, AQSH, Germaniya va Yaponiya davlatlari butun bir dunyo aholisining 8 % aholisiga ega bo‘lib, jahonda sotib olinayotgan mahsulotlarning 1/3 qismi ushbu davlatlarga to‘g‘ri keladi. Shu borada aytish lozimki, ochiq iqtisodiyot sharoitida jahon mamlakatlari iqtisodiy taraqiyotning aniq bir mamlakatlari iqtisodiy faydasi hisobiga faoliyat yuritadilar. Tizimning asosida xalqaro doiralardagi alohida bir davlatlarning milliy ishlab chiqarishi va uning taqsimlanishi, mahsulot ayirboshlashi va ishlatishini tashkil etadi. Ushbu faoliyat chegaralangan holda, butun bir jahon xo‘jaligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish xo‘jaliklarining barchasi o‘zlarining milliy xo‘jaliklaridan tashqarida faoliyat yuritmaydi.

Jahon iqtisodiyotida tizim tushunchasi – keng ma’noli va harakatlanuvchi kuch bo‘lib, u umumiy maqsadlar sari intiladi. Bu tizimga kiruvchi tizimlar esa maxsus xarakterga ega bo‘lgan sektordir. YA’ni, bu kichik tizimchalar bo‘lib, turli maqsadlar sari harakatlanadi. Ammo bu tizimchalar o‘zaro bir-biri bilan chambarchas bog‘langan holda ish yuritib, bir-biriga ta’sir ko‘rsatish xarakteriga ega bo‘ladi. Aks holda tizim tarqalib ketishi ham mumkin.

Jahon iqtisodiyoti tizimining maqsadi, aholining so‘rov talablarini qondirishga qaratilgan. YA’ni, yaratilgan yangi ishlab chiqarish korxonalari o‘z talabini emas, balki aholining yashash turmush tarzini qondirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Tizim – yuridik va noyuridik shaxslar tomonidan davlatlararo iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yuvchi, xalqaro normalarda ish yurituvchi, yakka tartibda faoliyat ko‘rsatishga asoslangan iqtisodiy tizim hisoblanadi. Yuqoridagi ushbu shart va normalarni bajarishda davlat va uning nazorat bo‘limlari yordam beradi.

Jahon xo‘jaligi – tarixiy va siyosiy kategoriY. Ushbu kategoriya ijtimoiy-iqtisodiy struktura bo‘lib, har bir davrda o‘zining ishlab chiqarish tarixiga va siyosatiga egadir. Jahon xo‘jaligi murakkab tizimdir. Ushbu tizim alohida element va subektlardan iborat bo‘lib, qaysiki ushbu subekt va elementlar murakkab jarayonlarning ishtirokchisi va uni davom ettiruvchisidir.

Jahon xo‘jaligining elementlari va o‘zaro munosabatlari pog‘onali rivojlanib boradi. Davlatlararo munosabatda xaqlaro pog‘onani tashkil etib,

xalqaro meyor va qoidalarni boshqaradi. Milliy chegaradan tashqarida faoliyat yurituvchi munosabatlar – transmilliy pog‘onani tashkil etadi. Bunga o‘zining axborotiga va tizimiga ega bo‘lgan firmalar kiradi. Ushbu pog‘ona alohida bir avtonom tizimga ega bo‘lib, boshqaruv nazoratidan chetda faoliyat ko‘rsatadi.

Jahon xo‘jaligi tizimi ijtimoiy-iqtisodiy sohada turlicha rivojlanib boradi. Ushbu sohada yuqori pog‘onani rivojlangan mamlakatlar egallagan. Jahon xo‘jaligi tizimi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy ta’limotdir. Jahon xo‘jaligi tizimida ishlab chiqarish va shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy sohada ro‘y berayotgan juda kuchli raqobat va qarama-qarshiliklarni ko‘rish mumkin. Ushbu ishlab chiqarish sohasidagi xususiyatlarning omillarini, ya’ni birlashgan guruhlarni o‘z ichiga oladi.

Jahon xo‘jaligida ma’lum bir maqsadlar sari intiluvchi xo‘jalik faoliyati subektlar orqali amalga oshiriladi. Subektlar ishlab chiqarish omillarini, rivojlanish jarayonlarini yo‘lga qo‘yadi. Jahon xo‘jalik tizimining subektlari kerakli kapitalga ega bo‘lib, ishlab chiqarishni tashkil eta oladigan, xalqaro xo‘jalik muihtida faoliyat yurita oladigan, xalqaro huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan doiradir. Bunday doiraga TMKlar, milliy davlatlarning xo‘jalik tizimlari, hududiy integratsiya birlashmalar, xalqaro moliyaviy tashkilotlar kiradi.

Davlat – jahon xo‘jalik tizimining asosiy subekt hisoblanadi. Davlat siyosiy va iqtisodiy jamiyatning organi (sinf va guruhlarning) bo‘lib, aholining qiziqishlarini qondiradigan subektdir. Kishilik jamiyatida sinf va guruhlardan iborat subektlar o‘z qiziqishlarini davlat miqyosidagi qiziqishlarga aylantiradi. Ushbu iqtisodiy subektlar o‘z navbatida davlat bilan birlashishiga va shuningdek o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatishga olib keladi.

Jahon iqtisodiyotida davlatning rivojlanishi milliy xo‘jaliklarning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Milliy iqtisodiyotning aniq xo‘jalik komplekslari asosida faoliyat olibborishi sababli davlat ushbu komplekslarni chetdagi salbiy aralashuvlardan himoya qiladi. Iqtisodiyotda davlat milliy chegaradan bozorga chiqishda, kapital jamg‘arishida, umumxalq aloqalarni tiklash maqsadida ichki va tashqi aloqalarni nazorat qiladi, ichki mashulotlarni ishlab chiqarishiga yordam beradi. U asosan, milliy daromad davlat tomonidan taqsimlanishi orqali amalga oshiriladi.

Davlat xo‘jalik faoliyatida faol qatnashadi. U tovar, mahsulot, xizmat ko‘rsatish sohalariga ega bo‘lib, kapital jamg‘arishga muvofiqdir. Yildan-yilga davlatning ichki mahsulotidan oladigan ulushi xususiy daromad ulushidan ortib boradi.

Umumdavlatning sarf-xarajatiga hokimiyat organlarining sarf-xarajatlari ham kiradi. Davlat kapital-mablag‘ ko‘paytirish hajmiga ichki va tashqi ta’sirini ham ko‘rsata oladi. Ichki ishlab chiqarish mahsulotdan olinadigan kapital-daromad 0,7-14 %ni tashkil etadi. Kredit va subsidiyalar berish shaxsiy sektorning investitsiyalashtirishiga o‘z ta’sirini ko‘rsata oladi. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi davlatning kapital jamg‘armalari va subsidiyalariga

bog‘liqdir. Bunga misol qilib rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi va ilmiy-tekshirish sohalarini ko‘rsatish mumkin.

Davlat yirik ish bilan ta’minlovchi organ bo‘lib, u to‘g‘ridan- to‘g‘ri tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug‘ullanadi. Ushbu ishbilarmonlik faoliyati iqtisodiy tanglikning oldini oladi, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni yechishda yordam beradi. 1970 yilda davlat ichki ishlab chiqarish mahsulotini 20 % gacha ko‘rsatib milliy daromadni qayta taqsimlab, ishlab chiqarishni boshqargan edi.

Davlat o‘z hokimiyat monopoliyasi yordamida milliy strategiyani belgilaydi. Jamiyatning huquqiy asoslarini belgilab, pul-kredit munosabatlarini boshqaradi, infratizimni rivojlantirib, ijtimoiy sohada tashqi xavf-xatardan himoya qiladi. Bu ishda aholini boshqaruv guruhlari, umumxalq maqsadlari sari harakatlanayotgan aholining turli guruhlari yordam beradi. TMKlar jahon xo‘jalik tizimiga va uning xo‘jalik yurituvchi subektlariga, faoliyatiga har tomonlama ta’sir ko‘rsata oladi.

Jahon xo‘jaligi yirik tizim bo‘lib, u turli tizim va tizimchalardan tarkib topgan. Tizimchalar o‘zining rivojlanish jihatlari bilan birgina o‘ziga xos vazifalarni emas, balki umumiy global tizimning muammolarini ham hal etishga qodirdir. Ushbu holatda o‘ziga xos ichki va tashqi qonuniyatlar mavjud.

Jahon xo‘jaligi tizimidan, tizimchalarning ajralib chiqish sabablariga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy xo‘jalik strukturasining xarakteri;
- iqtisodiy rivojlanish rejasi;
- iqtisodiy o‘sishning turi;
- tashqi iqtisodiy aloqalarning darajasi va xarakteri.

Jahon xo‘jaligi tizimidan tizimchalar ajralib chiqishining asosiy sabablaridan biri – xo‘jalikning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini xususiylashtirish hisoblanadi. Xususiylashtirishni amalga oshirilishi jahon hamjamiyati rivojlanishiga, shuningdek jamiyat munosabatlari o‘zaro o‘rnatilishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Mulk xususiylashtirilishi xalqaro mehnat taqsimotining turli shakllarini, individlarning mehnat qurollariga bo‘lgan munosabatlarini belgilaydi. Mulkni xususiylashtirish jarayonlarida ishlab chiqarish vositalarining (asbob-uskunalar) ishchi kuchi bilan bolangan sharoitida yuzaga keladi. Bu holatda tashkiliy-huquiy idoralarning roli kattadir. Ishlab chiqarish jarayonida insonlar o‘zaro aloqani emas, balki firmalar o‘rtasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni taqsimlash, uni ayirboshlash yoki ishlatishni ham o‘z ichiga oladi.

Tizimchalarning keng tarqalish sabablaridan biri yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga mos kelishini xarakterlovchi iqtisodiy rivojlanish darajasidir. Ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanish darajasi aholi yashash sharoitiga va shuningdek aholi talablarini ijtimoiy – iqtisodiy qondirishiga mos kelishi zarur. Jahon xo‘jaligida ishlab chiqarish tarmoqlari ishlab chiqarish asbob-

uskunalaridan va predmetlaridan iborat. Industrial davlatlarda aholi talablarini qondiradigan, uzoq muddatga ishlatish mumkin bo‘lgan talablarini qondiradigan, uzoq muddatga ishlatish mumkin bo‘lgan tovarlarning ishlab chiqarish darajasi yuqori o‘rinni egallaydi. Jahon iqtisodiyotida tizimchalarni o‘rni va tavsifi milliy xo‘jaliklarning tashqi sektoridagi roliga ham bog‘liqdir. YA’ni, import, eksport tovarlari va xizmat ko‘rsatish tamoyillari va kapitalning harakatiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Karimov, I.A. (2016). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* Toshkent: Ma’naviyat.
3. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF). (2023). *Annual Report 2023: Promoting Global Financial Stability.* Washington, D.C.
4. The World Bank. (2023). *World Development Report 2023: Migrants, Refugees, and Societies.* Washington, D.C.
5. Asian Development Bank (ADB). (2022). *Key Indicators for Asia and the Pacific.* Manila: ADB Publishing.

1. Transport Infrastructure Investments. Journal of Transport Geography, 19(1), 1–12.